



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



MA'MURIY ISH YURITISH: SAMARADORLIK VA QONUNIYLIK GAROVI

Dostonov Eldiyor Elmurod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Toshkent Davlat Transport Universiteti Iqtisodiyot fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich bakalavr talabasi:

J.A.Majidov

*Ilmiy rahbar: Iqtisodiyot fakulteti Xalqaro Ommaviy huquq kafedrasii
dotsenti v.b y.f.b.f.d (PhD)*

E-mail: eldiyordostonov@gmail.com

Tel: +998885982211

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma'muriy ish yuritishning samaradorligi va qonuniyligi masalalari tahlil qilingan. Unda zamonaviy sharoitda davlat organlarida hujjatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning asosiy omillari haqida so'z boradi. Tadqiqotda mamuriy ish yuritishning normativ-huquqiy bazasi, elektron hujjat aylanishi tizimining joriy etilishi, hamda samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari ko'rib chiqilgan. Maqola -ma'muriy ish yuritish jarayonlarini qonuniy asoslari va ularning amaliy samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini o'rganishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *Ma'muriy ish yuritish, samaradorlik, qonuniylik, elektron hujjat aylanishi, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, normativ-huquqiy baza, hujjat aylanishi, davlat xizmatlari, boshqaruv jarayonlari.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы эффективности и законности административного делопроизводства. В ней рассматривается, что в современных условиях совершенствование системы работы с документами в государственных органах является одним из ключевых факторов повышения эффективности государственного управления. В исследовании изучены нормативно-правовая база административного делопроизводства, внедрение системы электронного документооборота, а также критерии оценки показателей эффективности. Статья посвящена изучению правовых основ административного делопроизводства и механизмов обеспечения его практической эффективности.*

Ключевые слова: *Административное делопроизводство, эффективность, законность, электронный документооборот, цифровизация, государственное управление, нормативно-правовая база, документооборот, государственные услуги, управленческие процессы.*

Annotation: *This article analyzes the issues of efficiency and legality in administrative proceedings. It discusses how, under modern conditions, improving the document management system within state bodies is one of the key factors in enhancing the effectiveness of public administration. The study examines the regulatory and legal framework of administrative proceedings, the implementation of an electronic document management system, and the criteria for assessing efficiency indicators. The article focuses on exploring*



the legal foundations of administrative proceedings and the mechanisms for ensuring their practical effectiveness.

Keywords: *Administrative proceedings, efficiency, legality, electronic document circulation, digitalization, public administration, regulatory and legal framework, document workflow, public services, management processes.*

Kirish

Hozirgi zamonda davlat boshqaruvining samarali ishlashi uchun mamuriy ish yuritish tizimining o'rni beqiyos deb o'ylayman. Aslida, bu tizim nafaqat rasmiy hujjatlar aylanish jarayoni, balki davlat va fuqaro o'rtasidagi aloqani shakllantiruvchi, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini an'anaviy qoidalar asosida tartibga soluvchi muhim mexanizmdir. Uning asosiy vazifasi qonunlarni oddiy odam hayotiga tatbiq etishdir – ya'ni qonunda yozilgan quruq me'yorlarni hayotiy, amaliy qarorlarga aylantirish va ularning ijrosini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday tartibga solinadigan jarayon bo'lmasa, qonunlar faqat qog'ozdagi matn bo'lib qolardi. Xo'sh, nega bu shunchalik muhim? Chunki yaxshi tashkil etilgan va shaffof ish yuritish, bir tomondan, davlat apparatining ishlash tezligi va byurokratik to'siqlarni kamaytirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, u fuqaroga nisbatan adolatli munosabatni me'yoriylashtirib, uning huquqlari daxlsizligi uchun aniq qalqon vazifasini o'taydi. Boshqacha qilib aytganda, bu jarayon nafaqat davlat samaradorligi o'sishiga, balki jamiyatda huquqiy ishonch va barqarorlikning shakllanishiga bevosita hissa qo'shadi. Hozirgi kunda globallashtirish va raqamlashtirish davlat boshqaruvi talablarini butunlay o'zgartirmoqda. Bu o'zgarishlar eng ko'p ma'muriy ish yuritishga ta'sir qilmoqda. Endi odamlar davlat xizmatlarini tez, oson va har qayerdan olishni istaydi. Shuning uchun elektron arizalar, onlayn xizmatlar va ma'lumotlarning xavfsizligi endi qo'shimcha emas, balki asosiy talabga aylandi. Bundan tashqari, global standartlar – ayniqsa shaffoflik, hisobdorlik va inson huquqlari himoyasi – har bir davlatni o'z ma'muriy tizimini doimiy yangilashga majbur qilmoqda. Raqamlashtirish esa nafaqat byurokратиyani tamoman yo'q qilish, balki sun'iy intellekt kabi texnologiyalar yordamida byurokratik jarayonlarni soddalashtirish, qarorlarni aniqroq qilishdir. Umuman olganda shunday demoqchimanki, ma'muriy ish yuritish endi faqat rasmiy tartib emas. U butunlay yangi – ochiq, tez va fuqaroga qaratilgan davlat boshqaruv modelining asosi bo'lib bormoqda. Davlatning samaradorligi endi uning ma'muriy tizimi qanchalik zamonviy, moslashuvchan va odamlarga qulay ekanligi bilan o'lchanadi. O'zbekistonda davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish jarayonlari haqida gapiradigon bo'lsam : O'zbekistonda davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish ishlari "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va 2022-2026-yillar uchun belgilangan milliy reja asosida jadal ishlar olib borilmoqda. Ushbu dasturlarning asosiy maqsadi byurokratik to'siqlarni kamaytirib, barcha jarayonlarni raqamlashtirish va xizmatlarni avvalo fuqaroning qulayligi uchun qayta qurishdir. So'nggi yillarda (2017-2024) amalga oshirilgan islohotlarning natijasi sifatida, masalan, UNDP loyihasi yordamida "bek-ofis" idoralarining imkoniyatlari oshirildi, davlat organlari o'rtasida elektron almashinuv keng joriy qilindi va fuqarolardan talab



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qilinadigan hujjatlar ro‘yxati sezilarli darajada qisqartirildi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan asosiy islohot yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Raqamli transformatsiya: 2025-yilga kelib Raqamli ma’lumotlar platformasi (RMP) yordamida 146 ta veb-xizmatlar birlashtirildi. Platformaning kunlik foydalanuvchilar soni 500 mingdan oshib, ma’lumot almashinuvi 700 million so‘rovni tashkil qildi.

2. Idoralar tizimini yangilash: Barcha davlat xizmatlari yagona ro‘yxatga kiritilib, "yagona darcha" markazlari tashkil etildi. Shuningdek, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish boshlandi.

3. Tizimlarni birlashtirish va kengaytirish: 2025-yil 1-noyabrdan boshlab mahallalarning markazlashtirilgan reyestri "Raqamli hukumat" tizimiga majburiy ravishda ulandi.

Ushbu islohotlarning natijalari allaqachon ko‘rinib bormoqda: xizmat ko‘rsatish jarayonlari sezilarli tezlashdi, 38 dan ortiq keraksiz ma’lumotnomalar bekor qilindi va fuqarolarning davlat idoralariga ishonchi oshdi. Kelajakda esa xususiy sektorning ishtirokini kuchaytirish va ko‘p kanalli xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan. O‘zbekistonda elektron hukumat tizimi oddiy onlayn xizmatlardan ancha ilgari ketdi. Hozirgi tizim blokcheyn va mobil ilovalar yordamida ma’lumotlarni himoyalangan tarzda uzatishni, shaffoflikni oshirishni va shu orqali korrupsiyaga qarshi kurashni maqsad qilgan. Yangi bosqichda tizimlarni bir-biriga ulash (API) kuchaytirildi. Bu esa banklar va xususiy sektor bilan hamkorlikni osonlashtirdi va 200 dan ortiq xizmatni internetga ko‘chirishga imkon berdi. Mobil hukumat: "MyGov" ilovasi orqali biometrik tizim (barmoq izi, yuzni tanish) va virtual passport joriy qilindi. Xalqaro hamkorlik: Jahon banki va UNDP kabi tashkilotlar bilan birga kibexavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlar nafaqat ish yuritishni tezlashtirish, balki O‘zbekistonni globallashtirgan dunyoda zamonaviy raqamli davlatga aylantirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Fuqarolarning tezkor va sifatli xizmatni kutishi, albatta, yangi portallar yaratishni talab etadi. Bu aslida, butun davlat idorasi madaniyati va har bir xizmatchining fuqaroga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Hammamiz shuni tushunamizki, asosiy talab idoralarning o‘zini ustun qo‘yishi emas, balki "fuqaro" markazida ishlashidir. Bu degani nima? Bu degani – tartib-qoidalar shunday bo‘lishi kerakki, fuqaro ularga iltimos qilavermasdan, bemaol o‘z ishini ko‘rsa. Muddati o‘z vaqtida bo‘lsin. "Shu qog‘ozni keyichalik yana keltirib bersangiz" degan vaziyatlar kamaysin. Bunda ishning soddaligi va aniqligi eng muhimdir. Yana bir muhim jihat – muloqot. Fuqarolar mansabdor kishilarning iltifotli, tushunarli tilda gaplashishini, qaror uchun javob berishini, agar rad etilgan bo‘lsa, buning sababini ochiq aytishini istaydi. Bu qoidalar qonunda qat’iy belgilab qo‘yilishi kerak sababi bu yerda qisman bo‘lsada inson huquqlari ham rol o‘ynamoqda, shuningdek har qanday xizmatning ruhiyati va haqiqiy sifati aynan mana shu narsalarga bog‘liq. Zamonaviy talab nafaqat "beriladigan" xizmatga, balki o‘z fikrini aytish imkoniyatiga ham tegishli. Odamlar parlament eshituvlarida, mahalla yig‘inlarida, onlayn so‘rovlarda qatnashib, "Men bunday deb o‘ylayman" deya olmoqchi. Va bu fikrlar e’tiborga olinishini, natijalari esa ochiq e’lon qilinishini kutmoqchi. Bu ma’noda, qonun loyihalari oddiy odamlar bilan muhokama



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qilinishi va ularning takliflariga quloq solingani ko'rinishi juda muhim bo'lib qolmoqda. Fuqarolar endi nafaqat tez, balki adolatli xizmatni istamoqda. Agar shikoyat qilsa, uning e'tiroziga e'tibor berilishini bilishni istamoqda. Shu sababli: har bir xizmatning qoidalari ochiq bo'lishi kerak: qancha vaqt ketadi, nima kerak, kim javobgar. Agar noto'g'ri qaror bo'lsa, unga shikoyat qilish oson bo'lishi kerak. Yaxshi xizmat faqat poytaxt yoki yirik shaharlar uchun emas. Chekka qishloqdagiyam, nogiron fuqaro ham, pensioner ham bir xil sifat va qulaylikni kutmoqda. Shuning uchun, mobil xizmat guruhlari, juda sodda interfeyslar va har qanday odamga mos yechimlar topish zarur. Bino eshigidan kirishdan tortib, imo-ishora tilida muloqotgacha – hamma narsa o'ylab chiqilishi kerak. Oxir-oqibat, ko'pchilik uchun "sifatli xizmat" degani nafaqat tezlik, balki o'zini qadrli va hurmat qilingan his qilishdir. Fuqaro "pastga qarab suhbatlashadigan" odambilan emas, balki hamkor sifatida gaplashadigan inson bilan ishlashni xohlaydi. Shu sababli, davlat xizmatchilarini nafaqat qonunlar, balki muloqot madaniyati va odamlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash juda muhim. Xulosa qilib aytganda, texnologiya va platformalar – bu faqat asbob. Asl o'zgarish esa, bu asboblardan foydalanadigan insonlarning qalbida va ularning fuqaroga bo'lgan munosabatida sodir bo'lishi kerak. Mana shu vijdonan mamuriy ish yuritish deyiladi va samaradorlikni ham qonuniylikni ham oliy darajaga olib chiqadigon narvonning birinchi pog'onasi bo'lib xizmat qiladi.

Bu maqolada hamma narsani ochiqcha bayon etayotgan ekanman muommalarni ham ko'ndalangiga qo'yib ularni taxlil qilib o'tib ketishim kerak deb hisoblayman. Hujjat aylanishi sekinligi, byurokratik to'siqlar, qog'oz hujjatlarning ko'pligi, turli tizimlarning bir-biriga bog'lanmaganligi, ba'zi xodimlarda raqamli savodxonlikning pastligi, qonunchilik bazasining to'liq joriy etilmaganligi. Bu muommalarni ko'rar ekanmiz xodimlarni raqamli savodxonligi pastligi degan muommo e'tiborimni ko'proq tortdi sababi hozirgi rivojlangan zamonda bu katta muomoga aylanishi mumkin sababi birinchidan bu holat ish yuritish sifati va tezligiga juda katta ta'sir o'tkazishi mumkin. Ikkinchidan bundan yuqoriroqda aytib o'tgan gaplarimni 70% qismini raqamli texnologiyalarga bog'laganimdan keyin ular bilan ishlaydigon hodimlar kam bolsa ularni joriy qilishdan foyda bo'lmaydida. Shu sababli avvalambor hodimlarni savodxonligini oshirib keyin ularni amalga joriy etish maqsadga muvofiq bolar edi. Yangiliklar kirib kelayabdimi demak muommolar yo'qolmoqda degan fikrdan yiroq bo'lish kerak sababi yangiliklar muommalarni orqa fonga otkazishi yoki bundanda ko'proq va kattaroq muommolarga sabab bo'lishi mumkin. Bu gaplarim bilan yangiliklar kiritishni to'xtatish kerak demoqchi emasman aksincha ularni jadal kiritish kerak biroq undan avval mavjud muommalarni hal qilib olish va texnologiya kirib kelgandan keyin kelib chiqishi mumkin bo'lgan muommalarni oldindan choralar ko'rib qo'yish kerak demoqchiman. Sababi muommolar o'zidan-o'zi paydo bo'lib qolmaydi ular yillar davomida yig'ilib oxirida yoriladi va odamlarni xayolida u hozir paydo bo'ldi degan fikrga olib kelib qo'yishi mumkin. O'zbekistonda "Ma'muriy ish yuritish samaradorligi va qonuniyligi" mavzusi 1990-yillardan beri o'rganilib kelinayotgan bo'lsa-da, mening nazaramda, u hali to'liq o'rganilgan deyish qiyin. Bu sohani o'rganish asosan 1994-yildagi Ma'muriy javobgarlik kodeksi va 2018-yildagi (keyinchalik 2024-yilda yangilangan) Ma'muriy sud



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ishlarini yuritish kodeksi kabi muhim qonun hujjatlariga tayanadi. 2000-yillarga kelib esa, mavzuda "qonun ustuvorligi", "obyektivlik" va "samaradorlik" kabi tamoyillar chuqurroq tahlil qilina boshladi. Masalan, professor X. Odilqoriyevning ishlarida (masalan, 2010-yildagi "Ma'muriy huquq" darsligi) ma'muriy ish yuritish davlatning tashkil etish, rahbarlik qilish va nazorat qilish kabi funksiyalari bilan bog'lanadi. U samaradorlikni qonuniylik va huquq ijodkorligi orqali oshirish, shuningdek, jarayonlarni modernizatsiya qilish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish kerakligini ta'kidlaydi. Biroq, mavzuning o'rganilganlik darajasida ancha kamchiliklar bor deb o'ylayman. Ko'p hollarda tadqiqotlar faqat qonun matnlarini tahlil qilish yoki sud amaliyotini sharhlash bilan cheklanib qolgan. Amaliy hayotdagi holatni ko'rsatadigan empirik tadqiqotlar – masalan, samaradorlikning aniq raqamli ko'rsatkichlari, keng qamrovli statistika yoki boshqa mamlakatlar tajribasi bilan chuqur solishtirishlar – hali yetarli emas. Shuningdek, mavzu hozirgi kunning eng dolzarb islohotlari, xususan raqamlashtirish jarayonlarini yetarlicha qamrab olmaydi. Ko'p ilmiy adabiyotlar 2010-2020 yillarga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunning talablari va imkoniyatlarini aks ettirmaydi. Shu sababli, bu mavzuni zamonaviy sharoitlar va global tendensiyalar kontekstida yangidan o'rganish va baholash zarur deb hisoblayman. OECD mamlakatlarida ma'muriy ish yuritishning samarali va qonuniy bo'lishi asosan raqamlashtirish orqali ta'minlanadi.

Hozirgacha nazariy huquqiy asoslarni, samaradorlik mexanizmlarini va xorijiy tajribani yozib o'tdim endi O'zbekistondagi ma'muriy ishlarning amaliy tahliliga to'xtalmoqchiman. Amaliy taxlilga toxtalishim uchun avvalambor aniq statistikani keltirib o'tishim maqsadga muvofiqdir. Aniq statistikaning ko'rib chiqishni YHXB dan boshlamoqchiman. Bunda: YHXB samaradorligi ko'rsatkichlari O'zbekistonda YHXB (yagona hujjat aylanishi) samaradorligi KPI (Key Performance Indicators) asosida baholanadi, bunda asosiy ko'rsatkichlar hujjatlarning qayta ishlash muddati (o'rtacha 3-5 kun), elektron imzolar ulushi (95% dan baland), rad etish foizi (kamida 5% dan past) va foydalanuvchi qoniqish reytingi (80% dan yuqori) hisoblanadi. "Samaradorlik.uz" platformasi orqali har chorakda baholash o'tkazilib, xodimlar A (100+ ball), B (85-100), C (70-85) va D (<70) toifalariga ajratiladi. Asosiy KPI guruhlarini Tezkorlik va samaradorlik: Hujjatni qabul qilishdan javob berishgacha o'tgan vaqt, idoralarda almashinuv tezligi (kuniga 700 mln dan ko'p so'rov). Qonuniylik va sifat: Huquqbuzarliklar soni (yillik 10% ga kamayish), shikoyatlar hal qilish foizi (95% ichida 30 kun). Raqamlashtirish darajasi: Onlayn murojaatlar ulushi (90%+), keng polosaga ulanish (98%), ma'lumotlar xavfsizligi hodisalari (0%). OECD standartlarida YHXB samaradorligi DGI orqali o'lchanadi: Daniya va Estoniyada proaktiv xizmatlar 90% avtomatlashtirilgan, bu O'zbekistonning RMP tizimini takomillashtirish uchun namuna bo'lib, X. Odilqoriyevning modernizatsiya tamoyillariga mos keladi. Natijada YHXB nafaqat qonuniy, balki iqtisodiy samarali, ya'ni xarajatlarni 30-40% tejashi mumkin. Bu statistikaga qarab turib demak hammasi yaxshi ekan deb xulosa chiqarish ham xato aslida, sababi men bu statistikaning ko'rib muommolar ham bo'lsa kerak shunga yarasha deb, ularni ham o'rganib chiqdim. Masalan qog'oz hujjatlar hanzu ustun bo'lib turgan sohalar. Haqiqatan ham, O'zbekistonda



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



raqamlashtirish dasturlari keng yo'lga qo'yilganiga qaramay, ma'lum sohalar va hududlarda qog'oz hujjatlar hali ham asosiy vosita bo'lib qolmoqda. Bu holat, odatda, uchta asosiy omil birga kelganda yuzaga chiqadi: texnik infratuzilma etishmaydi, xodimlarning raqamli ko'nikmalari yetarli emas va huquqiy tartibotlar hali to'liq raqamlashtirishga yo'l qo'ymaydi. Bu muammo chekka hududlar va maxsus tartibdagi jarayonlarda ayniqsa yaqqol seziladi. Chekka hududlardagi mahalliy organlar: Ko'plab tuman va qishloqlarda internet aloqasi va kompyuterlar yetarli emas. Shu sababli, u yerdagi mahalliy hokimiyat organlarida arizalar, rasmiy yozishmalar va dalolatnomalar deyarli har doim qog'oz shaklida yuritiladi. Yana bir organni aytishimdan oldin bu meni amaliy tajribamga asoslanganini ta'kidlab o'tmoqchiman. Ya'ni men o'tgan yili chilonzor tumanlararo xalqaro sudida amaliyot o'taganimda bunday byurokratiya va qog'ozbozlik juda ko'pligiga shaxsan guvoh bo'lgan edim. Sud va arxiv ishlarining bir qismi: Elektron hujjat aylanishi to'g'risida qonun bo'lishiga qaramay, ayrim sud ishlari (masalan, qimmatbaho qog'ozlar yoki qiyin jinoyat ishlari) uchun asl qog'oz hujjatlar talab qilinadi. Shuningdek, tarixiy arxivlar va kadrlar arxivlarida asl qog'oz nusxalarni saqlash talabi saqlanib qolgan. Buning asosiy sabablari nima? Huquqiy ehtiyotkorlik: Ba'zi idoralar "asl nusxa – qog'oz" tamoyilidan chiqishga tayyor emas. Chunki sudda hujjatni isbotlash, ekspertiza o'tkazish yoki arxiv talablariga javob berishda qog'oz nusxa hali ham eng ishonchli deb hisoblanadi. Texnik va madaniy omillar: Ham elektron imzo tizimlari, ham xodimlarning kompyuterda ishlash ko'nikmalari hamma joyda bir xil darajada emas. Natijada, xatolik yoki texnik nosozlikdan qo'rqan holda, ko'plab rahbarlar qog'oz nusxani "ishonchli kafolat" sifatida saqlashni afzal ko'rishadi. Xulosa qilib aytganda, davlat tomonidan raqamli transformatsiya dasturlari qog'ozbozlikni keskin kamaytirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, yuqorida sanab o'tilgan soha va hududlarda qog'ozdan to'liq voz kechish jarayoni hali ham yakunlanmagan. Bu o'tish davri tabiiy hisoblanadi, lekin uzoq cho'zilmasligi kerak.

Bu muommolarni ko'rib o'zim uchun mazkur o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq etishni taklif etaman. O'zgartirish talab etiladigan qonunlar elektron hujjat aylanishini to'liq joriy etish uchun "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun (2004-yil, keyingi o'zgartirishlar bilan) yangilanishi zarur, chunki unda elektron hujjatning qog'ozga tengligi belgilangan bo'lsa-da, sud va arxivlarda asl nusxa talabi saqlanib qolgan. Shuningdek, Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksiga (2018) elektron dalillarning to'liq qabul qilinishini va qog'ozsiz sud jarayonlarini kiritish lozim. Yangi normativ hujjatlar zarurati elektron hujjatlarning mutlaq ustunligi to'g'risida maxsus qonun: qog'oz nusxa majburiy emasligini, blokcheyn va AI asosidagi autentifikatsiyani belgilash. Nega aynan AI va blokcheyn deb aytadigon bolsak, dunyo shunday yo'l tutmoqdami demak ulardan qolib ketmaslik va ular bilan birga rivojlanish masalasi borligi uchun shuni taklif qilmoqdaman. Sohaviy reglamentlar: Sog'liqni saqlash (tibbiy kartalar), ta'lim (jurnallar) va mahalliy hokimiyatlar uchun elektron aylanishni majburiy qiluvchi vazirlik buyrug'lari. Bu o'zgarishlar YHXB samaradorligini 40-50% oshirib, OECD standartlariga moslashtiradi, X. Odilqoriyevning modernizatsiya g'oyalarini amaliyotga tatbiq etadi. Bu statistika, takliflar va muommolardan keyin xulosaga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



to'xtalishimdan oldin xalqaro standartlarga moslashish va moliyalashtirish xaqida qisqa aytib o'tib ketmoqchiman. Sababi takliflarimni eshitgan to'g'rirog'i o'qibchiqqan bo'lsangiz ularni qanday moliyalashtirilishi haqida savollaringiz bo'lishi mumkin. Buni chet mamlakatlarda qancha ketgan va O'zbekiston qanday moliyalashtirishi mumkin degan so'zlariga o'z prognozlarimni aytmoqchiman. Xalqaro standartlarga moslashish ISO 9001 sifat menejmenti standartini YHXB jarayonlariga joriy etish mamuriy ish yuritishda jarayonlarni standartlashtirish, xatolarni 20-30% ga kamaytirish va doimiy yaxshilashni ta'minlaydi, bu OECD mamlakatlarida (Daniya, Estoniya) muvaffaqiyatli qo'llanilgan. ISO 15489 hujjatlar boshqaruvi esa elektron arxivlash, saqlash muddatlari va kirish huquqlarini tartibga solib, qog'ozsiz tizimga o'tishni tezlashtiradi, natijada samaradorlik 40% ga oshadi. EGDI ko'rsatkichlarini yaxshilash O'zbekiston 2024-yilda EGDI bo'yicha 63-o'rinni egallagan (0.7999 ball), bu "Raqamli O'zbekiston-2030" maqsadidan (0.75) yuqori, ammo yetakchilar (Singapur 0.97) dan orqada. Yaxshilash uchun Online Service Index (OSI) va Telecommunication Infrastructure Index (TII) ni kuchaytirish zarur: proaktiv xizmatlar (AI bashorat), ochiq ma'lumotlar va mobil hukumatni rivojlantirish orqali 2025-yilda Top-50 ga kirish mumkin, mening prognozim bo'yicha. Moliyaviy ta'minot YHXB modernizatsiyasi uchun yillik 500-700 mln USD investitsiya kerak: infratuzilma (200 mln), o'qitish (100 mln), platforma rivojlanishi (200 mln) va kibertahdidlarga qarshi (100 mln) bular taxminiy raqamalar (+,- qilib xisoblaganda). Davlat byudjeti (60%) asosiy manba bo'lib, xalqaro grantlar (UNDP, Jahon banki, ADB – 40%) orqali qoplanadi; masalan, UNDP loyihasi 2025-yilda 50 mln USD ajratgan. Moliyalashtirish manbalari Davlat byudjeti: "Raqamli O'zbekiston-2030" doirasida 2025-yil byudjetidan 300 mlrd so'm (taxminan 24 mln USD) ajratilgan. Xalqaro grantlar: OECD, EU va Osiyo Rivojlanish Banki loyihalari, EGDI yaxshilash uchun 2025-2030 yillarda 300 mln USD kutilmoqda. Xususiy sheriklik: PPP modeli orqali banklar va IT-kompaniyalar (API integratsiya) 100 mln USD kiritishi mumkin. Bu choralar X. Odilqoriyevning samaradorlik g'oyalarini xalqaro standartlar bilan birlashtirib, mamuriy ish yuritishni qonuniy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mamuriy ish yuritishning samaradorligi va qonuniyligi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy raqamlashtirish sharoitida bu ikki tamoyilni muvofiqlashtirish davlat boshqaruvi sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Demak, men shu maqolani yozib, bir necha narsani aniq angladim. O'zbekistonda ma'muriy ish yuritish degan narsa hozir o'zgarish o'rtasida turibdi. Bir tomondan, yangi dunyo talabi – raqamlashtirish, tezkorlik, ochiqlik. Ikkinchi tomondan, eski tuzumning og'irligi – qog'ozbozlik, chekka hududlardagi muammolar, ba'zi idoralarning ehtiyotkorligi. Ha, my.gov.uz, Raqamli Ma'lumotlar Platformasi kabi yirik loyihalar ishlayapti. Lekin bu dasturlar oddiy odam hayotiga to'g'ri kelmaguncha, ular faqatgina texnologiya bo'lib qoladi. Fuqarolar endi boshqacha. Ular nafaqat biror hujjat olishni, balki o'zlariga hurmat bilan munosabatda bo'linishini, ularning fikri eshivilishini va agar shikoyat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qilsa, bunga javob berilishini kutmoqda. Bu esa nafaqat dastur yozishni, balki butun boshqaruv madaniyatini o'zgartirishni talab qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyat faqat texnologiyani sotib olishda emas. Bu – ma'lumotlarni ochiq qilishda (open by default), qonunlarni odamlar uchun qulay qilishda (digital by design) va hatto oldindan o'ylab, fuqaro nima kerakligini bashorat qilishdadir (proactiveness). Bu yo'l Janubiy Koreya yoki Daniya kabi mamlakatlarda allaqachon ishlab ko'rilgan. Xulosa qilib aytganda, mening fikrimcha, O'zbekistonda ma'muriy ish yuritishning kelajagi ikki narsaga bog'liq: birinchisi, texnologiyani chekka hududgacha yetkazish va har bir xodimni yangi tizim bilan ishlashga o'rgatish. Ikkinchisi va eng muhimi – davlat xizmatchisining ongini o'zgartirish. U fuqaroni “murojaat beruvchi” emas, balki “xizmat oluvchi mijoz” deb bilishi kerak. Agar bu ikki jihat – texnologiya va inson – bir-birini to'ldirsa, u holda ma'muriy ish yuritish nafaqat “samarali” va “qonuniy”, balki odamlar haqiqatdan ham ishonadigan va qadrlashadigan tizimga aylanadi. Bu yo'l uzoq, lekin boshqa iloj yo'q – zamon shuni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti, <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillari to'g'risida”gi qonuni. 2017-yil 20-dekabr. O'RQ-457-son.
3. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-5185-son
5. “Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish dasturi” to'g'risida. PQ-24-son (2020-yil kuchini yo'qotgan)
6. Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-6079-son. 06.10.2020
7. “Normativ-huquqiy hujjatlar” to'g'risida. O'RQ-682-son. 20.04.2021
8. “Elektron hujjat aylanishi” to'g'risida. O'RQ-611-II-son. 20.05.2004
9. “O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash” haqida. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 11-iyulda 1834-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
10. <https://samaradorlik.uz/uzc/site/login>.

Ilmiy adabiyotlar:

11. Odilqoriyev X.T. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: TDYU, 2020. – 520 b.
12. Ismoilov M.I. Ma'muriy jarayonlar huquqi. – T.: Adolat, 2019. – 384 b.
13. Norqulov B.S. Ma'muriy ish yuritish asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 180 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Internet manbalar:

14. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti. www.minjust.uz
15. Davlat xizmatlari" davlat agentligi rasmiy portali. www.my.gov.uz
16. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi ma'lumotlar bazasi. www.lex.uz
17. Prezident Administration rasmiy veb-sayti. www.president.uz
18. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti. www.stat.uz

Xorijiy tilda ilmiy adabiyotlar:

19. Bovens M., Zouridis S. From Street-Level to System-Level Bureaucracies // Public Administration Review. 2020. Vol. 80. №3. P. 234-245.
20. Dunleavy P., Margetts H. The Second Wave of Digital-Era Governance // Journal of Public Administration. 2021. №4. P. 156-178.
21. OECD. Digital Government Review of Brazil. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 234 p.
22. UN E-Government Survey 2024: Digital Government in the Decade of Action for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2024. – 312 p

